# O‘QITUVCHI MEHNATINI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING ROLI

**Madaminova Nilufar Madrasulovna**
*Toshkent Arxitektura-Qurilish instituti*
*akademik litseyi Ingliz tili etakchi oqituvchi*.

**Annotatsiya.** *Davlat va jamiyat hayotini modernizatsiyalash jarayonlarining harakatga keltiruvchi kuchi, O‘zbekistonning bugungi va istiqboldagi izchil taraqqiyotining bosh omili bo‘lgan insonning ma’naviyatini va kasbiy salohiyatini yuksaltirishda o‘qituvchilarning tajribasi va mahoratini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi bugungi kunda ta’lim va tarbiya berayotgan shogirdlarining kamoloti bilan mamlakatimiz kelajagiga ulkan poydevor qo‘yadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch" asarida o‘qituvchi mehnatini yuksak baholab shunday deydi: "Ota-onalarimiz qatori biz uchun eng yaqin bo‘lgan yana bir buyuk zod – o‘qituvchi va murabbiylarning olijanob mehnatini hurmat bilan tilga olamiz.*

**Kalit so’zlar:** O‘qituvchi mehnati; demokratik huquqiy jamiyat; pedagogik mahorat komponentlari; milliy mafkura; fanlar integratsiyasi; ijtimoiy foydali mehnat; kun tartibi; obyektiv shaxsiy xususiyatlar; iqtidor va qobiliyat; pedagogik texnika; bilim va ixtisoslik; o‘qituvchining yosh xususiyatlari.

Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas’uliyatli vazifani ado etishda birinchi galda ana shu mashaqqatli kasb egalariga suyanamiz va tayanamiz, ertaga o‘rnimizga keladigan yoshlarning ma’- naviy dunyosini shakllantirishda ularning xizmati naqadar beqiyos ekanini yaxshi tasavvur qilamiz". Demak, bugungi kun o‘qituvchisi o‘z ustida tinimsiz mehnat qiladigan, har tomonlama keng fikrlaydigan, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan, hozirgi kunda o‘qituvchining pedagogik mahoratini yanada oshirish muammosi davr talabidir. 316 Demokratik huquqiy jamiyat qurish jarayonida o‘qituvchining o‘rni, vazifalari yosh avlodni tarbiyalash ishiga javobgarligi muhim ahamiyatga ega. Olib borilayotgan islohotlarning ijobiy natijalar berishini yetuk va malakali mutaxassislar ta’minlaydi. Ularni voyaga etkazish, ta’lim–tarbiya berish, o‘qituvchiga yuklatilgan talablarning kun sayin ortib borishi, ularni hal etish vazifasi o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq.

Hozirgi zamon o‘qituvchisi o‘z pedagogik mehnati jarayonida qator ta’lim–tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. U avvalo ta’lim muassasalari o‘quv jarayonining asosiy tashkilotchisi. O‘qituvchi ta’lim – tarbiya jarayonida hamda darsdan tashqari faoliyatda o‘quvchilarning porloq kelajagi uchun javobgar shaxsdir. Ushbu ulkan mas’uliyat ijobiy

natijalar berishi uchun o‘qituvchi, avvalo, o‘zining pedagogik mahoratiga tayanadi. Pedagogik mahorat shunday bir malakalar yig‘indisidirki, uning natijasi o‘qituvchi mehnatida va o‘quvchilar xulqi, odobi, tarbiyasida, kelajakda yetuk mutaxassis kadr bo‘lib yetishishida o‘z aksini topadi.

O‘qituvchi o‘zining qizg‘in mehnati jarayonida pedagogik mahoratning quyidagi komponentlarini ma’lum darajada o‘zlashtirishi lozim: - yoshlar psixologiyasiga oid bilimlarga ega bo‘lishi; - nutq madaniyatining barcha turlari va metodlarini bilishi; - o‘qituvchi qobiliyati (empatiya, perseptiv, didaktik, konstruktiv, kommunikativ, anglash) ning mohiyatini anglashi; - aktyorlik mahoratini (mimika, pantomimika, notiqlik san’ati) egallashi; - o‘z kayfiyatini (hissiy psixik holat) boshqara olishi; - tarbiyalanuvchilar bilan muloqot va muomala madaniyatini o‘zlashtirishi; - pedagogik texnika uslublarini o‘z o‘rnida qo‘llay olish san’atiga ega bo‘lishi. Ushbu pedagogik mahorat komponentlari mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ijtimoiy–iqtisodiy talablar mohiyatidan kelib chiqishi kerak. Milliy mafkura, umummilliy dastur talablari, urf–odat va an’analar pedagogik mahorat asosida tashkil etiladigan o‘qituvchi mehnatning asosiy mohiyatida o‘z aksini topishi kerak. O‘qituvchi mehnatining muvaffaqiyati va samarasi uni ilmiy jihatdan puxta tashkil etishga, mehnatni oqilona uyushtirishga ta’sir etadigan shart – sharoitlarga va mehnatni amalga oshirish yo‘llarini to‘g‘ri belgilashga bog‘liq.

O‘qituvchi mehnati doimo ijodkorlik bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun mehnatni amalga oshiruvchi o‘qituvchi avvalo o‘z mehnatini rejalashtirishda, o‘zi puxta egallagan pedagogik mahoratiga va o‘z ilmiga tayanishi lozim. Hozirgi zamon axborot kommunikatsion texnologiyalarining taraqqiyoti davrida o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish fan va texnika yutuqlarini o‘qituvchi tomonidan qay darajada o‘zlashtirilishiga ham bog‘liq. Shu bilan birga o‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil qilish uchun fanlar integratsiyasini, pedagogika va psixologiya fanlarining eng so‘nggi yutuqlarini muntazam o‘zlashtirib borish shart. Ushbu bilimlar axborot kommunikatsion texnologiyalari, matbuot, ilmiy jurnallar, ilmiy adabiyotlar asosida o‘zlashtiriladi. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda vaqtdan unumli foydalanish, o‘zining keng imkoniyatlarini hamisha hisobga olish, o‘quv va tarbiya jarayonida har bir daqiqadan unumli foydalanish, vaqtni bekorga o‘tkazishga yo‘l qo‘ymaslik muvaffaqiyat garovidir. O‘qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda avvalo: - o‘z ijodiy imkoniyatlariga ishonishi; - ta’lim muassasalarida olib boriladigan ta’lim – tarbiya jarayonini to‘liq tasavvur eta olishi; - har bir tarbiyalanuvchining ruhiy holatini puxta bilishi; - o‘z mehnati mexanizmini, qonuniyatlarini, cheklangan imkoniyatlarini yaxshi anglashi; - ta’lim-tarbiya jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan unumli foydalanishni bilishi shart. O‘qituvchi mehnatini ilmiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etish bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy–foydali mehnat bo‘lib, u yuqorida ta’kidlab o‘tilganlardan tashqari, aql va diqqatni, jismoniy kuchni, shijoat va g‘ayratni talab etadi.

Oʻqituvchi mehnatini ilmiy jihatdan toʻgʻri tashkil etilishi ularni mustaqil, erkin faoliyat koʻrsatishiga, oʻz fikr–mulohazalarini aniq va mukammal bildirishiga, har tamonlama shakllangan komil insonni tarbiyalashga, oʻz kasbini puxta oʻzlashtiradigan yetuk mutaxassis tayyorlashga zamin yaratadi. Oʻqituvchi mehnati ilmiy jihatdan toʻgʻri tashkil etilishida oʻquvchilar bilan olib borilayotgan faoliyatning quyidagi yoʻnalishlariga eʼtibor berish lozim: - oʻqituvchi va oʻquvchilarning ikki tomonlama bir-biriga taʼsiri natijalari; - oʻqituvchining oʻquvchilar jamoasi bilan ishlay olish qobiliyati; 318 - sinf jamoasi faollari bilan olib boriladigan pedagogik faoliyatning ijobiy natijalari. Oʻqituvchi mehnatini ilmiy jihatdan toʻgʻri tashkil etishning quyidagi vositalarga eʼtibor berish lozim.




***1-rasm. Oʻqituvchi mehnatini ilmiy jihatdan toʻgʻri tashkil etish vositalari***

Oʻqituvchi mehnatining taʼlim-tarbiyaviy mohiyati ijobiy natijalar berishi uchun, oʻqituvchi sinf jamoasi bilan oʻtkazilayotgan har qanday tadbirni belgilangan vaqtda amalga oshirishi, mehnat va dam olish uchun ajratilgan vaqtdan unumli foydalana olishi, oʻz mehnati faoliyatida sogʻ- ligiga, ruhiy holatiga eʼtibor berishi lozim. Ayniqsa, yosh oʻqituvchilar mehnatini ilmiy asosda toʻgʻri tashkil etishda quyidagi boshlangʻich yoʻnalishlar muhim ahamiyatga ega:

1 – yoʻnalish. Oʻqituvchi kasbiga oid faoliyat: a) oʻz ishiga, mutaxassisligiga oid bilimlarni mukammal egallash; b) mamlakatimiz Qonunlari, taʼlim sohasiga taalluqli hujjatlarni puxta bilishi; v) pedagogika, psixologiya va oʻz mutaxassisligiga oid eng soʻnggi yangiliklardan xabardor boʻlib borish; g) oʻquvchilar jamoasi va har bir shaxs haqida maʼlumotlarni oʻrganish; d) ilgʻor va tajribali oʻqituvchilar mehnat faoliyatini oʻrganish va oʻz ishida tadbiq etish; e) oʻz ustida ishlash va oʻz-oʻzini tarbiyalash.

2-yoʻnalish. Oʻz kasbiy mahorat elementlarini hosil qilish: a) pedagogik faoliyatga oid, shaxsiy pedagogik mahoratni takomillashtiruvchi koʻnikma va malakalarni egallash; b) oʻz mehnatini va qobiliyatini meʼyorida toʻgʻri ishlata olishi; 1. Mehnat faoliyatini toʻgʻri rejalashtirish. 2. Belgilangan vazifalarni tashkil etish va amalga oshirish. 3. Oʻz mehnatini muntazam boshqarish va nazorat qilish. 4. Oʻz-oʻzini nazorat qilish (refleksiya). 319 v) mutaxassislikka oid maʼlumotlardan toʻgʻri foydalana olishi uchun diqqatni jamlay bilish.

3-yo'nalish. O'quvchilar guruhi bilan ishlay olish: a) pedagogik faoliyatning shart-sharoitlari va guruh jamoasidagi ma'naviy holatni boshqara olish; b) guruh jamoasidagi psixologik muhitni doimiy nazorat qilish; v) ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga ijodiy yondashuv; g) pedagogik faoliyatga insonparvarlik va demokratik prinsiplar asosida yondashish; d) o'quvchilar xulqi va bilimini o'z vaqtida rag'batlantirib borish; e) jamoada shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishni to'g'ri tashkil etish; j) o'quvchilarning kundalik rejimga to'g'ri va doimiy rioya qilishini tashkil etish.

Pedagogik mehnatni ilmiy asosda to'g'ri tashkil etishda o'qituvchining kun tartibi muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zi uchun eng optimal bo'lgan va yuqori samara beradigan kun tartibini tanlay olishi lozim. O'qituvchi mehnatini ilmiy asosda tashkil etishda qo'yiladigan talablar ilk bor I.P. Rachenko, R. Rasulova kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

[38.] A.A.Xomidov . XAVFSIZLIK YOSTIQCHASI TURLARI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №22(198) Часть 5, 9-12 ст.

[39.] Xomidov, AA, Abdurasulov, MSh . YO'LOVCHI VA YUK TASHISH SHARTNOMASI VA UNING MAZMUNI, MOHIYATI. “ИРТЕРНАУКА” Научный журнал, №45(221) Часть 3, 98-99 ст,

[40.] Xomidov, A.A., Abdirahimov, A.A. (2021). TRANSPORT LOGISTIKASIDA ZAHIRALAR VA OMBORLASHTIRISH. *Internauka,(45-3)* , 100-103.

[41.] Хомидов, АА, Сотиболдийев НМ (2022). ОРГАНИЗАЦИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ПЕРЕВОЗОК НА ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ. *Internauka*, №1(224) Часть 2, 73-76 ст.

[42.] Ahmadjon o'g'li, XA, & Muhammadali o'g'li, T.M. (2022). ISHLOB CHIQARISH LOGISTIKASI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* , *2* (1), 401-404.

[43.] Xomidov Anvarbek, & Tursunboyev Murodjon (2022). ELIMINATING CONGESTION ON INTERNAL ROADS. Universum: технические науки, (2-7 (95)), 29-31. https://7universum.com/pdf/tech/2(95)%20[15.02.2022]/Xomidov.pdf

[44.] Шодмонов, С. А. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *4*, 62-66.

[45.] Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Шодмонов Сайидбек Абдувайитович. (2022). ДАТЧИКИ ТЕМПЕРАТУРЫ. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development*, *4*, 62–66. http://www.ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/65

[46.] Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, Qurbonov Islombek Ibrohimjon o'g'li, Хомидов Анварбек Аҳмаджон ўғли, & Қурбонов Исломбек Иброҳимжон ўғли. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING

HUQUQIY ASOSLARI . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *5*(5), 13. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/932

[47.] Ahmadjon o'g'li, X. A., & Ibrohimjon o'g'li, Q. I. (2022). AVTOMOBILLARDA YUK YO'LOVCHILARNI XALQARO TASHISHNING HUQUQIY ASOSLARI. http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/932

[48.] Ahmadjon o'g'li, X. A., & Nabijon o'g, A. O. T. (2022). TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKATINING TAVSIFLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH. http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/933

[49.] Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Akromaliyev O'tkirbek Nabijon o'g'li. (2022). TRANSPORT VA PIYODALAR HARAKATINING TAVSIFLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *5*(5), 23. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/933

[50.] Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich. (2022). On-Board Computer and Monitoring System. *Eurasian Scientific Herald*, *9*, 64–71. Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1703

[51.] Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li, & Negmatov Bekzodbek Baxodir o'g'li. (2022). Manufacturing Logistics. *Eurasian Scientific Herald*, *9*, 60–63. Retrieved from https://geniusjournals.org/index.php/esh/article/view/1702

[52.] Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). DEVICE FOR MANUAL CONTROL OF VEHICLE BRAKE AND ACCELERATOR PEDAL . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(2), 77–83. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2006

[53.] Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ЭЛЕКТРООБОРУДОВАНИЯ АВТОМОБИЛЕЙ НА БАЗЕ АДАПТИВНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЭНЕРГИИ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(2), 84–92. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2007

[54.] Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, & Saidbaxrom Muzaffar o'g'li Ikromov. (2022). ИССЛЕДОВАНИЯ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ОСТАНОВОЧНЫХ ПУНКТОВ МАРШРУТНОГО ПАССАЖИРСКОГО ТРАНСПОРТА . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(2), 93–99. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/2008

[55.] Anvarbek Ahmadjon o'g'li Xomidov, Saidolimxon Jaloliddin o'g'li Abbasov, & Sayidbek Abduvayitovich Shodmonov. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(1), 76–82. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1969

[56.] Shodmonov, S. A. (2022). GLOBAL ELEKTR AVTOMOBILLARINI ISHLAB CHIQISH VA ELEKTR MASHINA ASOSLARI.

[57.] Shodmonov Sayidbek Abduvayitovich, Abbasov Saidolimxon Jaloliddin o'g'li, & Xomidov Anvarbek Axmadjon o'g'li. (2022). RESPUBLIKAMIZDA YUKLARNI TASHISHDA LOGISTIK XIZMATLARNI QO'SHNI RESPUBLIKALARDAN OLIB CHIQISH VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI . *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(1), 83–90. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1970

[58.] Аббасов Саидолимхон Жалолиддин угли, Шодмонов Сайидбек Абдувайитович, & Хомидов Анварбек Ахмаджон угли. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. *JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS*, *9*(1), 101–108. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972

[59.] Шодмонов, С. А. (2022). ОЦЕНКА ПОКАЗАТЕЛЕЙ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОДОРОДСОДЕРЖАЩИХ СОСТАВНЫХ ТОПЛИВ В ДВИГАТЕЛЯХ ВНУТРЕННЕГО СГОРАНИЯ. http://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/1972

[60.] Anvarbek Ahmadjon o‘g‘li Xomidov, Sayidbek Abduvayidovich Shodmonov, & Guldona Akbarjon qizi Turg‘unova. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 61–66. Retrieved from https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/266

[61.] Shodmonov, S. A., & qizi Turg‘unova, G. A. (2022). Railway Transport, its Specific Characteristics and Main Indicators. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 61-66.

[62.] Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов, Сайидбек Абдувайидович Шодмонов, & Гулдона Акбаржон қизи Турғунова. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 67–72. Retrieved from https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/267

[63.] ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Результаты Лабораторных Исследований, Проведенных Для Разработки Технологии Регенерации Валов. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 67-72. https://www.periodica.org/index.php/journal/article/view/267

[64.] qizi Turg‘unova, G. A., Ahmadjon o'g'li, X. A., & Shodmonov, S. A. (2022, December). SUYUQ VA GAZ HOLATIDAGI HAMDA CHANG KO'RINISHIDAGI YUKLARNI TASHUVCHI MAXSUS VA GIBRID AVTOMOBILLAR. In *Conference Zone* (pp. 287-295).

[65.] Ahmadjon o'g'li, X. A., Shodmonov, S. A., & qizi Turg‘unova, G. A. (2022, December). YO ‘LOVCHI AVTOMOBIL TRANSPORTI VOSITALARI. In *Conference Zone* (pp. 207-214).

[66.] Махамматзокир Тоштемирович Гаффаров, & Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике.

Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 73–78. Retrieved from https://periodica.org/index.php/journal/article/view/268

[67.] Гаффаров, М. Т., & ўғли Хомидов, А. А. (2022). Регулирование Транспортных Потоков В Республике. Обеспечение Безопасности Дорожного Движения И Предотвращение Пробок. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 73-78. https://periodica.org/index.php/journal/article/view/268

[68.] Анварбек Аҳмаджон ўғли Хомидов, Сайидбек Абдувайидович Шодмонов, & Гулдона Акбаржон қизи Турғунова. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 79–87. Retrieved from https://periodica.org/index.php/journal/article/view/269

[69.] ўғли Хомидов, А. А., Шодмонов, С. А., & қизи Турғунова, Г. А. (2022). Определить Поток Пассажиров В Районе Города. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, *12*, 79-87. https://periodica.org/index.php/journal/article/view/269